

QO'SHMA GAP VA UNING TURLARI

Oriental universiteti boshlangich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Axunova Nilufar

Oriental universiteti o'qituvchisi

Vohida Muqaddas Rasuljonovna.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qo'shma gaplar va ularning turlari shuningdek, o'quvchilarga ona tili darslarida, qo'shma gaplar mavzusini yanada tushinarliroq tarzda, ma'lumot olishiga yordam berish haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Gap, qo'shma gap, bog'langan munosabatlar, semantik, grammatik belgi, bog'langan qo'shma gaplar.*

Bugun o'zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, uning nutqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish faoliyatimizning tarkibiy qismiga aylandi. Hozirgi kunda qo'shma gaplar bo'yicha bir qancha tadqiqodlar, maqolalar qilingan. Bog'langan qo'shma gaplar deb o'zora teng bo'lovchilar yordamida birikkan, mazmuni va tuzilishiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan qo'shma gap turlariga aytiladi.

Keyingi avlod rus tilshunoslari orasida ham «qo'shma gap» tushunchasining chalkash tomonlari haqida fikr bildirilganini kuzatamiz. Masalan, M.V. Lyapon bu xususda quyidagilarni yozadi: «Agar qo'shma gap (murakkab jumla) ikki yoki undan ortiq (kommunikativ salmoqli) tugal fikr anglatayotgan xabarlar birikuvini taqozo etar ekan, uning sathida matn ifodasining jiddiy belgilari kuzatiladi». Bunday mulohaza Ye.P.Marchenko tomonidan ham ta'kidlanadi. I. F.Vardulning fikriga ko'ra, faqat tobe bog'lanishli sintaktik strukturalarni qo'shma gap deb atash mumkin. Teng bog'lanishli (bog'langan va bog'lovchisiz) qo'shma gap mavjud emas. Bog'lovchili yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar deb nomlanib kelinayotgan sintaktik qurilmalar umuman lingvistik maqomga ega emas. Shunday bo'lgach, ergash gapli qo'shma gap degan tushunchaga ham hojat qolmaydi. Boshqacha aytganda, birgina «qo'shma gap» terminining o'zi yetarlidir. I. F.Vardul bunday xulosaga kelishining asosiy sabablaridan biri odatdagi ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gaplar bir-biriga mutlaqo bog'lanib keladi, ularning birortasini ham alohida qo'llash mumkin emas, degan tushunchaga asoslanishidadir. Vardul hatto bosh gapni gap emas, balki murakkab qurilmaning bir parchasi deb biladi.

Shu o'rinda yana bir mulohazani aytib o'tish maqsadga muvofiq. Dunyodagi tilshunosliklarning deyarli barchasida qo'shma gaplarning tasnifi deyarli bir xil, ya'ni:

- 1) bog'langan qo'shma gap,
- 2) ergashgan (yoki ergash gapli) qo'shma gap
- 3) bog'lovchisiz ko'shma gap.

Bu tasnifdagi nomlanishda asos yagona emasday tuyuladi. Bir qarashda yagona asos borga o'xshaydi, ya'ni tasnifda go'yoki grammatik shakldan kelib chiqilgan:

«bog'langan» deganda bog'lovchilar (teng), «ergashgan» deganda ergashtiruvchi bog'lovchilar ana shunday boshqa vositalar, «bog'lovchi-siz» deganda esa bog'lovchi va bog'lovchi vositalar ishtirok etmagan qo'shma gaplar nazarda tutilganday. Ammo aslida «ergashgan» deganda ham shakliy, ham mazmuniy jihat hisobga olinganlari aniqroq angla-shiladi, ya'ni bir voqeaning boshqasiga tobeligi, ergashishi ta'kidlangan. Ayni paytda, ergashish ham bog'lanish, ergashgan ko'shma gap qismlari bog'langan qo'shma gapdagiga qaraganda zichroq bog'langan. «Bog'lovchisiz qo'shma gap» deganda mazmunga mutlaqo ishora ham yo'q. Ma'lumki, bog'lovchisiz ko'shma gaplar o'zbek tilida ham, boshqa tillarda ham keng qo'llanadi. Ularda xilma-xil mazmun munosabatlari ifodalanadi.

Bog'langan qo'shma gap Qismlarining o'zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gap bo'g'langan qo'shma gap deyiladi. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro biriktiruv bog'lovchilari (va, hamda, ham), zidlov bog'lovchilari (ammo, lekin, biroq, balki), ayiruv bog'lovchilari (yo, yoki, yohud, dam... dam, goh... goh, ba'zan... ba'zan, hali... hali, bir... bir), teng bog'lovchi vazifasidagi -da, -u (-yu), na... na yuklamalari, shuningdek, bo'lsa, esa yordamchilari vositasida bog'lanadi.

Shunga ko'ra bog'langan qo'shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
2. Zidlov bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
3. Ayiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qoshma gap.
4. Teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan boglangan qo'shma gap.
5. Bo'lsa, esa yordamchi sozlari vositasida tuzilgan boglangan qo'shma gap.

Biriktiruv bog'lovchilari (va, hamda; ba'zan shu vazifadagi ham yuklamasi) yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlardan bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar anglashilib turadi. Masalan: Haqiqat va togrilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi va uning vijdoniga hech kim hokim bola olmaydi. (Oz-oz organib dono bolur.) Keng bogdagi har bir nihol qonib-qonib suv ichdi va uning yaproqlari nurga intilib osa boshladi. (O.Hoshimov.)

Zidlov bog'lovchilari (lekin, ammo, biroq, balki) yordamida tuzilgan boglangan qoshma gap qismlari mazmunan bir-biriga zid boladi. Masalan: Har qanday narsada isrofgarchilik bor, ammo yaxshilikda isrof bolmaydi. («Ajoyib nasihatlar») Burni, qoshi, yana allaqaeri otasiga oxshardi, lekin Akbarov ham bir vaqtlar oqliday ajinsiz, quyuq qora sochli bolganini tasavvur etish qiyin edi. (P.Qodirov).

Ayiruv boglovchilari (yo, yoki, yohud, goh..., goh, dam..., dam, ba'zan..., ba'zan...) yordamida tuzilgan boglangan qoshma gapda birini tanlash lozim bolgan yoki galma-gal ro'y beradigan voqea-hodisalar ifodalanadigan qismlar birikadi. a) yo (yo..., yo), yo..., yo bolmasa; yoki (yoki..., yoki); yo..., yoki; xoh..., xoh boglovchilari birini tanlash lozim bolgan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni birlashtiradi. Masalan: Yo kok unga oz sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql kozgusi xiralashib qolgan. goh; dam..., dam; ba'zan..., ba'zan boglovchilari galma-gal roy beradigan

voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni boglaydi. Masalan, Ba'zan oy zarrin kokillarini yer yuziga yoyib yuboradi, ba'zan bulut oy yuzini qoplab oladi. (Oybek.)

Teng boglovchilar vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan boglangan qoshma gaplar qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket roy beradigan voqea-hodisalar yoxud mazmunan zid bolgan voqea-hodisalar anglashilib turadi. Bunda -u, (-yu), -da, na..., na yuklamalari biriktiruv boglovchilarining vazifasini, -u (-yu) yuklamasi zidlov boglovchilari vazifasini bajaradi. Masalan: Oykol ilgari alohida xojalik edi-yu, kattagina idorasi bor edi. (P.Qodirov.) Ikki tomondagi kitoblarga tolib turadigan qubbali javonlarda na bir kitob bor, na bir qolyozma bor. (O.Yoqubov.) Bo'lsa, esa sozlari vositasida tuzilgan boglangan qo'shma gap qismlaridan bir vaqtda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar qiyoslanishi anglashiladi. Masalan: Oliy himmatli kishi, mard odam bir lahzada dost orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi. («Oz-oz organib dono bolur».)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976 yil.
2. Rubinchik Yu.A. Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazyka. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2001 yil.
3. G'ulomov.A, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T.,1997 yil
4. Turniyozov B.N. davlatlarning o'z vaqtida tengbek komponentlari tili sintaktik qurilmalar derivatsiyasi. – Samarqand, 2008 yil.
5. Xayrullaev X. Predikativlik hodisalari va aniqlash ob'ektlari. – Samarqand, 2002 yil.
6. Matyuziyev A. O'zbek tilidagi ayrim ergashtiruvchi bog'lovchilarning tarixiga doir; O'zbek tili va adabiyoti, 1998 yil, 1-son.